



BOLALARDA QANDLI DIABET KASALLIGI SABABLARI, KLINIK BELGILARI VA ASORATLARI.

Farg'ona shahar Abu Ali Ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

Pediatriya kafedrası o'qituvchisi

Marasulova Muharramxon

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda qandli diabet kasalligi sabablari, klinik belgilari va asoratlarihaqida aytib o'tilgan va muallif tomonidan muhim tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: endokrin bezlar, albuminuriya, glyukozuriya, silindruriya, insulin, gipotoniya, insulinoterapiya, parhez, gipoglikemiya, taxikardiya, giperglikemiya, paratireoid bez, gomeostaz, polietiologik, polidepsiya, polifagiya, neyrodermiya, paradontoz, retinit, enurez, poliuriya

Annotation: This article discusses the causes, clinical signs and complications of diabetes in children, and the author gives important recommendations.

Keywords: endocrine glands, albuminuria, glucosuria, cylindruria, insulin, hypotension, insulin therapy, diet, hypoglycemia, tachycardia, hyperglycemia, parathyroid gland, homeostasis, polyetiological, polydipsia, polyphagia, neurodermatitis, periodontosis, retinitis, enuresis, polyuria

Qandli diabet – me'da osti bezining Langergans orolchalarida hosil bo'ladigan insulin gormoni yetishmovchiligi natijasida organizmda uglevodlar almashinuvi jarayonining buzilishi bilan harakterlanadi. Kasallik bilan maktabgacha tarbiya, balog'at yoshidagi bolalar ko'p og'riydi. Qandli diabet ***polietiologik*** kasallik bo'lib, bu kasallikda nasliy moyillikning ahamiyati katta. Kasallikning asosiy sababi – me'da osti bezi gormoni insulin yetishmasligidir. Bolalarda qandli diabet aksari infeksiyon kasalliklar (tepki, suvchechak, qizamiq, gripp, skarlatina, angina) dan keyin

boshlanadi. Ruhiiy travma, jismoniy travma, uglevodlar va yog'larga boy ovqatarga ruju qo'yish, ya'ni noto'g'ri ovqatlanish ham asosiy sabablardan bo'lib hisoblanadi.



Klinik manzarasi – kasallik asta-sekin rivojlanishi yoki to'satdan boshlanishi mumkin. Kasallikning birinchi belgilari ko'p chanqash va ko'p miqdorda suv ichish (polidepsiya), og'iz va lablar qurishi, tez-tez, ko'p-ko'p siyish (poliuriya), siydik tutolmaslik (enurez), ishtaha kuchayishi, tez-tez va ko'p miqdorda Ovqat yeyish (polifagiya) va shunga qaramay ozib ketishdir. Keyinchalik bola ishtahasi zo'r bo'lishiga qaramay, quvvatsizlanib, boshi og'riydi, tez charchaydigan bo'lib qoladi. Bemor terisi quruqlashib, badan kichishuvi (neyrodermit), furunkulyoz kabi Qo'shimcha kasalliklar paydo bo'lib, kaft va tovon terilari ko'chib tushadi. Bolaning hazm organlarida quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi: tili quruq, zo'rayib boruvchi tishlar kariyesi, stomatit, paradontoz (milklar zararlanishi), tishlar tukilishi va boshqalar. Jigari kattalashadi va og'riqli bo'ladi. Bolalarda yurak qon-tomir tizimi tomonidan: puls labil bo'ladi, arterial bosim pasayadi, auskultasiyada yurak tonlari bo'g'iqroq eshtilishi kabi belgilar kuzatiladi. Bolalarda ko'ruv organlarida o'zgarishlar bo'lib, diabetik katarakta va diabetik retinit (tur parda yallig'lanishi) avj olib boadi. Qonning umumiy tahlilida ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar bo'lmasligi mumkin. Siydik tahlilida albuminuriya (siydik bilan oqsil ajralishi), silindruriya (siydik bilan silindrlar ajralishi), glukozuriya (siydik bilan ko'p miqdorda qand ajralishi) aniqlanadi. Qondagi qand miqdori, keton tanachalari miqdori ortadi.



Asoratlari – noto‘g‘ri davolash qilinganida, qandli diabetning o‘tishi og‘irlashib, bir qancha asoratlari rivojlanadi: bo‘y o‘shishining sekinlashuvi, jinsiy jihatdan yaxshi yetilmaslik, Buyrak funksiyasining buzilishi, **katarakta** (ko‘rlik), jigar sirrozi, **gipoglikemik koma**, **mikroangiopatiya** kabilar. Eng og‘ir asorati **diabetik ya‘ni giperglikemik komadir**.

Tashhisoti – qandli diabet deb tashhis qo‘yishda bemordagi klinik belgilar (polidepsiya, polifagiya, poliuriya), qon va siydikdagi o‘zgarishlarga asoslanadi. Sog‘lom bola qonidagi qand miqdori normada 3,3-5,5 mmol/l bo‘ladi. Kasal bolalarda esa bu ko‘rsatkich nahorda (och qoringa) tekshirilganda 11,5-18,5 mmol/l gacha, ba‘zan undan ham ko‘proq bo‘ladi. Qandli diabetning yashirin formasida bemorda asosiy klinik belgilar ko‘rinmaydi, qondagi qand miqdori nahorga normada bo‘ladi, siydik bilan qand ajralmaydi. Bu bolalarga qand berib, qondagi qand miqdori aniqlansa, ya‘ni qand miqdorini ko‘rsatadigan egri chizikka qarab, aniqlasa bo‘ladi. Yashirin diabet uchun egri chizikning yuqorilab ketishi, sekinlik bilan pastga tushishi harakterlidir. Sog‘lom bolada odatda siydik bilan qand ajralib chiqmaydi. Qandli diabet bilan og‘rigan bolalar siydigida 8,3-11,1 mmol/l va undan ortiq qand miqdori bo‘ladi. Buni aniqlash uchun sutkalik siydik miqdori va sutkalik glukozuriya aniqlanadi.

Davosi – qandli diabetni davolashning asosiy prinsipi fiziologik normaga to‘g‘ri keladigan, bekamu-kust ovqatlar bilan ovqatlanib borish, **insulinoterapiya** qilish va gigiyena rejimiga amal qilishdir. Sog‘lom bolalar uchun belgilangan Ovqatda oqsil, yog‘, uglevodlar nisbati 1:1:4 bo‘lsa, qandli diabet bilan og‘rigan bolalar uchun bu nisbat 1:0,75:3,5 bo‘lishi kerak. Parhez to‘tishda sifatli, vitaminlarga boy ovqatlar beriladi, bunda Ovqat tarkibida oqsil yetarlicha bo‘lishi kerak, yog‘lar va



uglevodlar birmuncha cheklangan bo'лади. Bola kuniga 5 marta ovqatlanishi kerak. Ular qora non, go'sht, sariyog', pishloq, tuxum, qatiq, qaymoq, sabzi, karam, lavlagi, baliq kabi maxsulotlarni iste'mol qilishi kerak. Qandli diabetning yengil turida parhez bilan davolasa bo'лади. Og'irroq hollarda insulin bilan davolanadi. Insulin preparatlaridan oddiy insulin, sink-insulin suspenziyasi, globulin-sink-insulin, semilenta kabilar qo'llaniladi. Kunlik insulin miqdori (dozasi) siydikdagi qand miqdoriga qarab aniqlanadi. Siydikdagi har 4-5 gr qand miqdoriga 1 TB da insulin buyuriladi. Insulin ovqatlanishdan 30-40 minut oldin teri ostiga yuboriladi. Bolalar yetarli miqdorda S, V1, V2, V6, V12 vitaimnlari bilan ta'minlanib to'rgan bo'lishi kerak. Qandli diabet bilan og'rgan bolalar umumiy rejimi sog'lom bolalarniki bilan bir xil.

Diabetik va gipoglikemik koma belgilari va davosi.

Diabetik koma – kasallik kechikib aniqlanganda, noto'g'ri davolanganda (tayinlangan insulin miqdori yetarlicha bo'lmaganda, parhez buzilganda) har xil yuqumli kasalliklar, ruhiy travmalar ostida kelib chiqadi. Diabetik komaning darmonsizlik, ko'p chanqash, ko'p siydik ajratish, uyquchanlik, ishtaha yo'qolishi, ko'ngil aynishi, qusish, bosh og'rigi, og'zidan aseton hidi kelishi kabi dastlabki xabarchi belgilarini vaqtida aniqlash muhim ahamiyatga ega. Aks holda bemor asta-sekin xushidan ketadi, reflekslari susayadi, teri va shilliq pardalari quruqlashadi, og'zidan aseton hidi kelib turadi, mushaklar bo'shashadi (gipotoniya), tez-tez chuqur-chuqur nafas oladi, tomir urishi tezlashadi. Tana harorati biroz ko'tarilib, ***giperglikemiya*** (qonda qand miqdorining oshishi) va ***glukozuriya*** kuchayadi. Bunday hollarda bemorga tez tibbiy yordam ko'rsatish zarur.

Gipoglikemik koma – qandli diabetni davolashda insulinni keragidan ortiq yuborish, insulin yuborilgandan keyin to'g'ri ovqatlanmaslik natijasida kelib chiqadi. Bunda bemor bolaning rangi birdan oqarib, o'zini behol sezadi, terga to'shadi, kuchli ochiqish sezadi, yurak urishi tezlashadi (taxikardiya), bosh aylanadi, ko'z qorachiq-lari kengayadi, qo'l-oyoqlari titrab, qaltiroq to'tib xushidan ketadi. Qonda qand miqdori kamayadi (gipoglikemiya).

Shoshilinch yordam ko'rsatish chora-tadbirlari:



Diabetik komada - qandli diabet bilan ogʻriganligi endigina aniqlangan bemorlarga 1-1,5 TB/kg hisobidan, ilgari davolanib yurgan kasallarga ikki marta oshirilgan sutkalik dozada insulin yuboriladi. Shu dozanining yarmini izotonik natriy xlor eritmasi bilan vena ichiga, qolgani teri ostiga yuboriladi. Ignani venadan chiqarmasdan turib, 0,9%-100 ml natriy xlor eritmasi, 100 ml Ringer eritmasi, 5% li-1 ml vitamin S eritmasi, 0,6%-1 ml tiamin bromid, 50 mg Kokarboksilazadan iborat aralashma yuboriladi. 2-3 soatdan soʻng dastlabki dozaning yarmi teri ostiga yuboriladi. Natriy xlorning 0,9% li eritmasi vena ichiga tomchilab yuboriladi. Qon aylanishi buzilganda teri ostiga kofein, kardiamin yuboriladi. Birinchi sutkada bolaga ovqat berilmaydi. 24 soatdan keyin qoq non bilan choy berish mumkin. 2 hafta davomida bolani oʻrnidan turgizmay yetkizib quyiladi.

Gipoglikemik komada – bemor bolaning es-hushi oʻzida boʻlsa, unga 2 boʻlak qand, konfet, murabbo, shirin choy berish kerak. Hushsiz boʻlsa, darhol vena ichiga 20-30 ml 40% li Glukoza eritmasi yuboriladi. Naf bermasa, 10 minutdan keyin yana takrorlanadi. Arterial bosim pasayganida teri ostiga 0,1% li adrenal eritmasi, kardiamin yuboriladi. Talvasa toʻtganida xloralgidrat bilan xukna qilinadi. Bola bezovta boʻlsa, fenobarbital ichiriladi.

Qandli diabet bilan ogʻrigan bolalarni parvarishlash xususiyatlari.

Qandli diabet bilan ogʻrigan bolalar dispanser hisobida turadi. 6 oyda 1 marta **okulist, nrevrapatolog, ftiziatr** koʻrigidan oʻtishi kerak. Epidemiologik jihatdan zaruriyat tugʻilgandagina bolalar emlanadi. Tibbiyot hamshirasi kasal bolalarni otalariga diabetning belgilari va davosiga oid asosiy masalalarni, ovqatlanish rejimini, insulin yuborish yoʻllari va joylari toʻgʻrisida tushuntirish ishlari olib boradi. Shu bilan birga, hamshira parhezga qatʻiy rioya qilish, shifokor tavsiya qilgan barcha dorilarni oʻz vaqtida qabul qilish, bemor terisi, ichki kiyimlari tozaligini taʼminlash bemor bolani parvarishlashda asosiy rol egallashini aytadi Bemorga qand miqdorini pasaytiruvchi vositalardan quyidagilarni berish mumkin: grechka (1choy qoshiq xom grechka ustiga ½ stakan kaynoq suv solib, 2 soat damlanib, keyin beriladi), chernika (maymunjon) damlamasi, karam bargi, malina sharbatlari, chinnigul damlamasi vash u kabillar. Bemor oyoqlarini har kuni iliq suvga vanna qilib yuvish, terining



mugo‘zlanuvchi qismni pemza bilan tozalash va shu joylarga krem surtish lozim. Hamshira oyoq terisida har qanday shikastlar aniqlanganda yarani furasillin eritmasi bilan yuvish va quruq steril bog‘lam qo‘yish zarurligini tushuntirish va bajarish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pediatriyada hamshiralik ishi . Qodir Inomov, Manzura G‘aniyeva

2. Bolalar kasalliklari DAMINOV T.A., XALMATOVA B.T.

BOBOYEVA U.R.

3. Internet saydlari:

<https://uz.wikipedia.org/wiki/>

<https://fayllar.org/>